

“GLOBAL IQTISODIYOTDA AQSH-XITOIY SAVDO SIYOSATINING OQIBATLARI VA SABOQLARI”

Ilmiy rahbar: Shermuxamedov Begzod

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti iqtisodiyot
fanlari fan doktori, professor*

Azamatova Madinabonu Baxodir qizi

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Buxgalteriya
hisobi fakulketi talabasi*

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 01.11.2025

Revised: 02.11.2025

Accepted: 03.11.2025

KALIT SO'ZLAR:

*global iqtisodiyot,
proteksionizm, iqlim
siyosati, sanksiyalar,
iqtisodiy xalqaro
iqtisodiy aloqalar,
savdo urushlari, boj.*

*Bugungi kunda iqtisodiyotida yetakchi o'rin tutgan
ikki gigant iqtisodiyotga ega Xitoy va AQSh
o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy
munosabatlar butun dunyoga ta'sir qilmoqda. Ushbu
maqolada Xitoy va AQSh o'rtasidagi iqtisodiy
hamkorliklar va qarama-qarshiliklar chuqur tahlil
qilinadi. Ayniqsa, savdo urushlari, ikki davlatning
o'zaro bir-biriga qo'ygan ta'rif va cheklovlari
hamda qo'llanilgan sanksiyalar va ularning dunyo
bozoriga ta'siri haqida fikr yuritiladi. Shuningdek,
har ikki davlatning ekologik muammolar bo'yicha
yondashuvi, iqlim o'zgarishi hamda texnologiya va
sun'iy intellekt borasida olib borilgan muzokaralar
ham muhokama qilinadi. Maqolada bu ikki yirik
iqtisodiyot egasi bo'lgan AQSH va Xitoy o'rtasidagi
kelishuvlarning kutilayotgan natijalari hamda dunyo
iqtisodiyotiga ta'siri bayon qilinadi.*

Kirish

XXI asr global iqtisodiyotida yetakchi mavqega ega bo'lgan Xitoy va AQSh o'rtasidagi munosabatlar nafaqat ikki tomonlama aloqalar doirasida, balki butun dunyo iqtisodiy va siyosiy muhitiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillardan biridir. Bu ikki davlatning har sohada har xil yondashuvlari, ko'nikmalari hamda iqtisodiy qarashlari turli bo'lganligi hamda ikki gigant iqtisodiyotga ega bu davlatlarning raqobatlashuvi kelishuvlarga qaramay

tobora yomonlashaverdi. Avvalo ,ularning bir birlariga qo'ygan ta'riflari ya'ni boj soliqlari ularning iqtisodiy munosabatlarini yomonlashtirgan bo'lsa, keyinchalik iqlim o'zgarishlari, sun'iy intellekt, turli texnologiyalar borasidagi tortishuvlar bularni keskinlashtirdi. AQSH va Xitoy yirik iqtisodiyotga ega bo'lib, 2023-yil holatiga ko'ra, Xitoyning nominal YaIM miqdori \$17.701 trln bo'lib dunyoda ikkinchi o'rinda, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdor esa \$ 12541 va 71- o'rinda turadi. AQSHga keladigan bo'lsak uning shu yil hisobidagi YaIM miqdori \$26.900 trlnga yetgan. Ikkala davlatning savdo aloqalari va investitsiyaviy hamkorligi ulkan miqyosda bo'lsa-da, ularning o'zaro ziddiyatlari ham shunchalik jiddiy tus olgan.

2018 yilda dunyodagi eng yirik ikki iqtisodiyot o'rtasidagi qizg'in iqtisodiy qarama-qarshilik AQSh-Xitoy savdo urushi bilan boshlandi. Hammasi Qo'shma Shtatlar Xitoy tovarlariga bojlar joriy qilganida boshlandi, chunki Xitoy adolatsiz savdo amaliyotlari bilan shug'ullangan va intellektual mulkni o'g'irlagan. Xitoy o'ziga xos tariflar bilan javob qaytarish orqali urushni boshladi. Muzokaralarda biroz oldinga siljish bo'lgan bo'lsa-da, ko'proq tariflar, Huawei kabi texnologik firmalarga cheklovlar va valyuta manipulyatsiyasi haqidagi munozaralar natijasida tortishuv kuchaydi. 2020 yildagi qisman Birinchi bosqich kelishuvi qisqa muddatli muhlat berdi, biroq bir qancha muammolar hali ham mavjud. Global ta'minot zanjirlari savdo urushi bilan o'zgartirildi, bu esa iqtisodiy o'zaro bog'liqlik qanchalik xavfli ekanligiga e'tibor qaratdi.

Xitoy iqtisodiyoti bu davrda AQShdan keyin nominal valyuta kurslaridan foydalangan holda dunyoda ikkinchi o'ringa chiqdi. Osiyo infratuzilma investitsiya banki, "Bir kamar va yo'l" tashabbusi va "Xitoyda ishlab chiqarilgan 2025" – ba'zi AQSh qonun chiqaruvchilarini xavotirga solayotgan Xitoyning yirik iqtisodiy loyihalaridan bir nechtasi. Umuman olganda, AQSh ma'muriyati Xitoyning iqtisodiy ekspansiyasini AQShning iqtisodiy va geosiyosiy gegemonligiga tahdid sifatida ko'rdi. "Bir kamar va yo'l" tashabbusi Xitoyning Osiyo, Yevropa va Afrikadagi ta'sirini keng ko'lamli infratuzilma loyihalari orqali kengaytirishga intildi. Made in China 2025 mahalliy yuqori texnologiyali sanoatni global miqyosda raqobatlasha olishga qaratilgan. Bu tajovuzkor narsalar Xitoyning iqtisodiy ahvolini yaxshi tomonga o'zgartirdi. Biroq, boshqa tomondan, bu Vashingtonda o'zining raqobatdosh ustunligi va geosiyosiy yetakchilik mavqeini yo'qotishi mumkinligidan qo'rquv va xavotirni kuchaytirdi.

So'nggi yillarda ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy mojaro juda keskin tus oldi. 2018-yilda AQSh prezidenti Donald Tramp boshchiligidagi ma'muriyat Xitoyga nisbatan

keng ko'lamli savdo sanksiyalarini joriy etganidan so'ng, ikki davlat o'rtasida savdo urushi boshlangan edi. AQSh tomonidan Xitoy mahsulotlariga qo'yilgan bojxona tariflari, Xitoyning esa javoban ko'rgan choralari natijasida global bozor beqarorlikka yuz tutdi. Texnologik sohadagi raqobat, ayniqsa, sun'iy intellekt, 5G texnologiyalari, kiberxavfsizlik masalalarida o'z aksini topdi. AQSh Xitoyning Huawei kabi kompaniyalariga qarshi sanksiyalar joriy qildi, Xitoy esa o'z milliy texnologik sanoatini mustahkamlashga qaratilgan strategiyalarni amalga oshira boshladi. Bundan tashqari, Xitoy va AQSh o'rtasidagi ziddiyatlar nafaqat iqtisodiy sohada, balki geosiyosiy maydonda ham sezilarli darajada keskinlashgan.

Adabiyotlar tahlili

AQSH va Xitoy o'rtasidagi masalalar dunyoviy bo'lganligi va boshqa davlatlarga ham ta'sir ko'rsatganligi sababli dunyo olimlari, iqtisodchilari bu muammoga muqobil yechim o'ylashmoqda. Ba'zi iqtisodchilar o'z maqola va asarlarida bir nechta muammoning sababi va yechimi haqida aytib o'tishgan. AQSH va Xitoy masalasini butun dunyo, hattoki, O'zbekiston yoshlari ham bu muammoga fikr bildirib o'tishgan.

O'zbekiston Respublikasida joylashgan Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi Norxonov Mirjalol o'z maqolasida shunday deydi- ". Xitoy va AQSh dunyoning eng yirik iqtisodiyotlariga ega bo'lib, ularning o'zaro iqtisodiy aloqalari global savdo va moliyaviy tizimga bevosita ta'sir ko'rsatadi. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida Xitoyning jadal iqtisodiy rivojlanishi hamda AQSh bilan savdo aloqalarining kengayishi natijasida ikki davlat o'rtasida o'zaro iqtisodiy bog'liqlik kuchaygan. Xitoy hozirda AQShning eng yirik savdo hamkorlaridan biri bo'lib, Amerika bozorlariga ulkan hajmdagi sanoat va texnologik mahsulotlarni eksport qiladi. Shu bilan birga, AQSh ham Xitoy bozoriga investitsiyalar kiritishda yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi.

Bu mavzuda iqtisodiy ta'sirga bag'ishlangan tadqiqotlar muhim o'rin tutadi. Ko'plab mutaxassislar, jumladan, C. Connable va A. S. Erickson, Xitoyning "Belt and Road Initiative" loyihasining mintaqaviy infratuzilma rivojiga qo'shgan hissasini tahlil qilishgan. Ammo, N. Swanström kabi tadqiqotchilar "qarz tuzog'i" (debt-trap diplomacy) xavfi haqida ogohlantirishadi va Xitoyga bo'lgan yuqori qarz majburiyatlarining davlatlar suverenitetiga ta'sirini muhokama qiladilar. AQSHning "Qizg'in Osiyo" (C5+1) kabi tashabbuslari va xususiy sektor investitsiyalari A. Kuchins va M. K. Laruelle tomonidan tahli qilingan bo'lib, ular G'arbning barqarorlik va ochiqlik tamoyillarini targ'ib qilishdagi rolini ta'kidlaydi.

Rossiya Federatsiyasidagi Ural davlat iqtisodiyot universiteti Marketing va Xalqaro Menejment sohasi professori Andrei Drevalyov hamkasblari Larisa Kapustina, Yakov Silin va Ludmila Lipkovalar bilan tadqiqotlari natijasida yozgan maqolasida shunday deydi: Raffi Shayx AQSH va Xitoyning iqtisodiy muammolari va savdo urushlarni o'rganayotgan vaqt ikki davlatdan biri bu jangda yutishi mumkinmi deb so'raydi va bunday javob oladi: savdo urushlarida g'olib bo'lmaydi, ammo, ikki davlat juda ko'p narsani yo'qotadi. Birinchi o'rinda ular global savdoda o'z o'rinlarini yo'qota boshlaydi. Bu esa tabiiyki davlatning iqtisodiyotiga va siyosatiga kuchli ta'sir qiladi. Narxlar oshadi, ish o'rinlari qisqarishi yuzaga keladi, investitsiyalar kamayishiga olib keladi, eng asosiylaridan biri milliy valyuta ham barqarorlashadi. Bundan tashqari, siyosiy va diplomatic ziddiyatlar kuchayadi. Chunki, savdo urushlari siyosiy ishonchni ham pasaytiradi. Yo'qotishlardan yana biri, texnologiya va resurs almashinuvi to'xtaydi. Davlatlar o'rtasida hamkorlik kamayib, innovatsiyalar sekinlashadi.

Tadqiqotlar metodologiyasi

Ushbu maqolada ya'ni Xitoy va AQSH o'rtasidagi savdo urushlari va uning global ta'sirini o'rganish davomida ilmiy maqolalar, rasmiy hisobotlar, empiric ma'lumotlar va mahalliy manbalardan foydalanilgan. Qo'shimcha qilib aytganda, analitik-solishtirma usuldan turli olimlarfikrlarini taqqoslash, o'xshash va faqrli jihatlarni aniqlashda, empirik tahlildan esa ta'riflar, savdo hajmi, narxlar va investitsiyalar bo'yicha raqamli ma'lumotlarni tahlil qilish uchun, shuningdek, sistemali yondashuvdan savdo urushining iqtisodiy, siyosiy va texnologik jihatlarni yagona tizim sifatida o'rganish maqsadida foydalanildi.

Empirik tahlil

Xitoy va AQSh o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar nafaqat nazariy jihatdan, balki empirik dalillar asosida ham o'rganilishi zarur. Ushbu tahlilda Xitoy va AQSh o'rtasidagi savdo va investitsiya oqimlari, savdo urushining iqtisodiy ta'siri, texnologik raqobatning real natijalari, hamkorlik va qarama-qarshilikning global iqtisodiy tizimga ta'siri statistik ma'lumotlar va faktlarga asoslangan holda tahlil qilinadi.

Xitoy va AQSh o'rtasidagi savdo va investitsiya oqimlari. Xitoy va AQSh dunyodagi eng yirik iqtisodiyotlar bo'lib, ularning savdo aloqalari global iqtisodiy rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatadi. 2022-yilda AQSh va Xitoy o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 690,6 milliard dollarni tashkil etdi, shundan: Xitoyning AQShga eksporti 536,8 milliard dollar, AQShning Xitoyga eksporti 153,8 milliard dollar. 2023-yilda ushbu raqamlar sezilarli o'zgarishlarga uchradi, chunki savdo urushi natijasida tariflar va cheklovlar savdo

oqimlariga ta'sir ko'rsatdi. Savdo urushi natijasida yuzaga kelgan o'zgarishlar 2018-yilda AQSh Xitoy mahsulotlariga 250 milliard dollarlik boj to'lovlarini joriy etdi. Xitoy javoban AQSh mahsulotlariga 110 milliard dollarlik tariflarni kiritdi. 2019-yilda Xitoy AQShdan soya, avtomobil, neft-kimyo mahsulotlarini import qilishni qisqartirdi. 2020-yilda imzolangan "Birinchii bosqich" savdo bitimi Xitoyni qo'shimcha 200 milliard dollarlik AQSh mahsulotlarini sotib olishga majbur qilgan bo'lsa-da, bu bitim ham to'liq bajarilmadi. Investitsiyalar oqimi. AQSh kompaniyalari Xitoy iqtisodiyotiga sezilarli darajada sarmoya kiritgan. Masalan, Apple, Tesla va Intel kabi kompaniyalar Xitoyda o'z ishlab chiqarishlarini tashkil etgan. Xitoy ham AQShga katta hajmdagi investitsiyalar kiritib kelgan. 2022-yilda Xitoyning AQShdagi investitsiyalari 38 milliard dollar atrofida baholangan. So'nggi yillarda AQSh hukumati Xitoyning texnologik kompaniyalariga qarshi cheklovlarni kuchaytirgani sababli Xitoy investitsiyalari pasayish tendensiyasiga ega.

Global iqtisodiyotga ta'siri. Xitoy va AQSh o'rtasidagi kelishmovchiliklarning global iqtisodiyotga ta'siri quyidagi yo'nalishlarda kuzatilmoqda. Xalqaro savdo zanjirlari buzilishi: Savdo urushi tufayli global ishlab chiqarish va ta'minot tizimlari o'zgarishga majbur bo'ldi. Inflyatsiya va narxlar o'sishi: Tariflar va cheklovlar natijasida dunyo bo'ylab mahsulotlar narxi oshdi. Raqamli iqtisodiyot va texnologik bo'linish: AQSh va Xitoy texnologik platformalari orasidagi tafovut chuqurlashib, global texnologik ikki qutblilik shakllanmoqda. Empirik tahlil shuni ko'rsatadiki, Xitoy va AQSh o'rtasidagi iqtisodiy raqobat va savdo urushi har ikkala mamlakat hamda butun dunyo iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. AQSh savdo urushining ta'siri tufayli iste'mol narxlarining oshishi va qishloq xo'jalik eksportining pasayishini boshdan kechirdi. Xitoy esa eksport hajmining qisqarishi va texnologik sanksiyalarga duch keldi, ammo ichki bozor va muqobil savdo yo'nalishlarini rivojlantirish orqali barqarorligini saqlab qoldi. Texnologik raqobat global iqtisodiyotda yangi qutblarning shakllanishiga olib keldi. Harbiy va geosiyosiy ziddiyatlar esa kelajakda AQSh va Xitoy o'rtasidagi keskinlikning davom etish ehtimolini oshirmoqda. Kelajakda ushbu raqobat global iqtisodiyotning barqarorligi va xalqaro munosabatlarning rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishda davom etadi.

Yil	AQSH ta'riflari (mlrd \$)	Xitoy ta'riflari (mlrd \$)	AQSH savdo defitsiti (mlrd \$)	Xitoy savdo profitsiti (mlrd \$)
2018	50	50	-419	+419
2019	250	125	-345	+345
2020	550	185	-310	+310
2021	550	185	-355	+355
2022	500	185	-382	+382
2023	500	185	-353	+353
2024	500	185	-379	+379

1-jadval. AQSH va Xitoy o'rtasidagi savdo balansining yillik ko'rinishi (2018–2024)

Mazkur jadvalda 2018-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda AQSH va Xitoy o'rtasidagi savdo urushi jarayonida ta'riflarning (bojxona to'lovlari) miqdori hamda savdo balansidagi o'zgarishlar yillik kesimda aks ettirilgan.

2018-yilda savdo urushi endigina boshlangan bo'lib, har ikki davlat bir-biriga 50 milliard dollarlik tarif joriy qilgan. Shu bilan birga, AQSH savdo defitsiti –419 mlrd dollarni, Xitoy esa +419 mlrd dollarlik savdo profitsitini qayd etgan. Bu holat AQSHning Xitoydan import hajmi yuqoriligini yaqqol ko'rsatadi.

2019-yilda vaziyat keskinlashdi. AQSH Xitoy mahsulotlariga tariflarni 250 mlrd dollargacha oshirdi, Xitoy esa javoban 125 mlrd dollarlik tarif joriy qildi. Natijada AQSHning savdo defitsiti –345 mlrd dollarga kamaygan bo'lsa-da, Xitoy hanuz yuqori profitsitda (+345 mlrd \$) qolgan.

2020-yilga kelib, tariflar eng yuqori darajaga yetdi: AQSH tomonidan 550 mlrd dollarlik, Xitoy tomonidan esa 185 mlrd dollarlik bojlar joriy etildi. Bu esa ikki mamlakat o'rtasidagi savdo oqimlariga sezilarli zarba berdi. Shu davrda AQSH defitsiti –310 mlrd dollargacha qisqargan, bu esa import hajmining pasayganini bildiradi.

Yil	Davlat yoki mintaqa	Ta'sir turi	Natija
2020	Yevropa Ittifoqi	Ijobiy	AQSH va Xitoydan bo'shagan segmentlarga kirgan
2021	Janubi-Sharqiy Osiyo	Ijobiy	Ko'p AQSH buyurtmalari bu mamlakatlarga o'tdi
2022	Jahon iqtisodiyoti	Salbiy	Pandemiya+savdo keskinligi ishlab chiqarishni sekinlashtirdi
2023	Afrika mamlakatlari	Ijobiy	Xitoy yangi sherik sifatida investitsiyalar yo'naltirdi
2024	Jahon bozori narxlari	o'zgaruvchan	AQSH "yashil iqtisodiyot" siyosati sabab yangi talab-taklif muvozanati shakllandi

2-jadval. Savdo siyosatlarini dunyo bozoriga ta'siri.

Jadvalga qarab xulosa qiladigan bo'lsak, 2020-yilda, Yevropa Ittifoqi bu ziddiyatlardan nisbatan olganda ijobiy foya ko'rdi. AQSH va Xitoy o'rtasidagi keskinlashuvdan so'ng ayrim sohalarda, ayniqsa, taxnologiya, avtomobil, kimyo sanoatidagi bo'shliqni Yevropa kompaniyalari to'ldirishni boshladi. Bu harakat esa Yevropa uchun export imkoniyatlarini yaratdi.

2021-yilda Janubi-Sharqiy Osiyo ya'ni Vyetnam va Malayziya, yangi ishlab chiqarish markazlariga aylandi. AQSH firmalari buyurtmalarini Xitoydan boshqa mamlakatga ko'chirganligi sababli, bu davlatlar "yangi ishlab chiqarish tuguni" vazifasini bajardi. Bu o'zgarish esa mintaqada ko'p ish o'rinlari yaratilishi va investitsiyalarini ko'payishiga xizmat qildi.

2022-yilda, dunyo iqtisodiyoti pandemiya oqibatlari va savdoga qo'yilgan cheklovlarining davomiyligi sababli ishlab chiqarish sur'atlari keskin pasaydi. Xomashyo yetishmovchiligi, logistika muammolari va energiya narxlarining o'sishi global iqtisodiyotning o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. AQSH va Xitoyning savdo ziddiyatlari bu ahvolni yomonlashtirishga xizmat qildi.

2023-yilda esa, Xitoy o'zining strategik siyosatini o'zgartirib, Afrika mamlakatlariga sarmoya kiritishni yo'lga qo'ydi. Bu esa Afrika uchun ijobiy ta'sir qildi. Infratuzilma loyihalari kengayib, xomashyo eksportini oshirdi. Shu orqali Xitoy o'ziga yangi sheriklarni shakllantirdi.

2024-yilga nazar tashlasak, dunyo bozorida narxlarning sezilarni o'zgarishi kuzatildi. AQSH "yashil iqtisodiyot" chora-tadbirlarini kuchaytirib, ekologik toza texnologiyalar va qayta tiklana oladigan energiya sohasiga e'tibor qaratdi. Bu esa global bozor muvozanatiga ta'sir qilib, ayrim sohalarda narxning keskin o'sishi, ayrimlarida esa pasayishiga olib keldi.

Umuman aytganda, jadval shuni ko'rsatadiki, AQSH va Xitoy o'rtasidagi savdo siyosatlari nafaqat ikki davlat, balki, global bozor muvozanatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qo'ymadi. Ba'zi davlatlar bunday foyda ko'rgan bo'lsa, ayrimlari esa jahon iqtisodiyoti umumiy barqarorlik va inflyatsion bosib bilan to'qnash kelishiga to'g'ri keldi.

Xulosa

Xitoy va AQSh o'rtasidagi iqtisodiy, texnologik va geosiyosiy raqobat bugungi global tartibning eng muhim masalalaridan bir hisoblanadi. Ushbu maqolada ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik va qarama-qarshilikni empirik dalillar asosida tahlil qilgan holda, ushbu raqobatning asosiy jihatlari va global iqtisodiyotga ta'siri ko'rib chiqildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Xitoy va AQSh o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar nafaqat ikki davlat, balki butun dunyo iqtisodiy tizimi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. AQShning tarif siyosati natijasida iste'mol tovarlari narxlarining oshishi va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tannarx xarajatlarining ortishi kuzatildi. Bu esa ichki bozor va eksport salohiyatiga salbiy ta'sir qildi. Xitoyning eksport hajmining qisqarishi natijasida ba'zi sanoat tarmoqlari jiddiy zarar ko'rdi. Biroq, Xitoyning muqobil bozorlarni izlash strategiyasi ushbu yo'qotishlarni qisman qoplashga imkon berdi. Investitsiya oqimlari kamayishi har ikkala davlat uchun ham salbiy natijalar keltirib chiqardi. AQSh Xitoy kapitalining kamayishini boshdan kechirgan bo'lsa, Xitoy AQShdagi sarmoyalarining kamayishi tufayli global moliyaviy tizimdagi ishtirokini zaiflashtirdi. Natijada, savdo urushi

nafaqat ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy bog'liqlikni susaytirdi, balki global savdo tizimining beqaror bo'lishiga ham sabab bo'ldi.

Xitoy va AQSh o'rtasidagi kelishmovchiliklar va raqobat kelajakda ham global iqtisodiyot va xalqaro munosabatlarning asosiy omillaridan biri bo'lib qoladi. Ushbu jarayonda har iqtisodiy va siyosiy dinamikaga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kelajakda Xitoy va AQSh o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar savdo hamkorligi, texnologik mustaqillik va geosiyosiy strategiyalar asosida rivojlanib borishi kutiladi. Shu sababli, xalqaro hamjamiyat ushbu raqobatning global barqarorlikka salbiy ta'sirini kamaytirish yo'llarini izlashga majbur bo'ladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Norxonov Mirjalol. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi maqolasi "Gigant iqtisodiyotga ega ikki davlat: Xitoy va AQSH. Kelishuvlar va qarama-qarshiliklar"
2. Andrei Drevalyov, Larisa Kapustina, Yakov Silin va Ludmila Lipkova maqolasi. Ural davlat iqtisodiyot universiteti
3. Nisreen Moosa, Vikash Ramiah, Huy Phamlarning "The origin of the US-Chine trade wars" maqolasi,
4. Abduraxmonov Q. va Xalimova D. (2020) Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Toshkent: iqtisodiyot
5. Jo'rayev N. (2019) Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O'zbekistonning xalqaro iqtisodiyotdagi o'rni,
6. Kissinger H. (2011) On Chine. New York: Pinguin press